

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR
TARIXI

- 6 **KARAXODJAEVA DILOROM
MAMIROVNA**
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский
ученый-государствовед

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционализм и наука конституционного
права: некоторые задачи и перспективы
развития
- 24 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
QODIROVA DILDORA IRKINOVNA
Xorijiy investitsiya tushunchasining
nazariy-huquqiy jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**
Intellectual mulk huquqini boshqarish va
texnologiyalar transferini davlat tomonidan
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOXJAXON AKMALJON O'G'LI**
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya
qilishning o'ziga xos jihatlari
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA
XODJIAKBAROVNA**
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni
tartibga solishning o'ziga xos jihatlari va
oilaviy-huquqiy shartnomalar

61 **МУРОДЖОНОВА МОХИРАХОН
МАКСУДЖОН КИЗИ**

ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА

Понятие международного договора
строительного подряда

70 **USMONOVA MUNISXON YO'LDOSH QIZI**

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni
aniqlashdagi muammolar

81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**

Legal regulation of consulting services

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI.

AGRAR HUQUQ.

EKOLOGIK HUQUQ

90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O'zbekistonda vodorod energetikasi sohasi
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim
masalalari

97 **ХАЙИТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**

Роль и значение объектов и субъектов
в энергетической безопасности

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING

OLDINI OLISH.

KRIMINOLOGIYA.

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat
qonunchiligida jazoni yengillashtirish instituti

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,

TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA

SUD EKSPERTIZASI

122 **UMARXONOV AZIZXON
SHARIPXONOVICH**

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi
ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash
asoslari

- 131 **ABDULLAYEV DIYOR IBODILLAYEVICH**
Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan
shaxsga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan
taqiq (cheklov)larning ilmiy-nazariy jihatlari
-

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 142 **ВАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**
Правовые инструменты защиты
иностранных инвестиций в соответствии
с положениями двухстороннего
инвестиционного договора: опыт
Республики Узбекистан
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./IBTF2559>
UDC: 347.61+440.82(045)(575.1)

XORIJIY DAVLATLARDA OILAVIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA OILAVIY-HUQUQIY SHARTNOMALAR

Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna

Oila va xotin-qizlar ilmiy tadqiqot
instituti bo'lim boshlig'i, dotsent,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-3892-8555
e-mail: akbarova1982@inbox.ru

Annotatsiya. Oila erkak va ayol o'rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan, jamiyatning axloqiy me'yorlari va qoidalari qo'llab-quvvatlanadigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga yetkazib beradigan hamda uni rivojlantiradigan birlamchi ijtimoiy guruh hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur institutni mustahkamlashning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy asoslarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Nikoh va oilaviy munosabatlar, oila a'zolarining o'zaro mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish, oilaviy majburiyatlarni bajarish kabi masalalar dolzarb sanaladi. Ushbu o'rinda oilaviy huquqiy shartnoma oilaviy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida alohida ahamiyatga egaligiga qaramay, bugungi kunga kelib nikohlanuvchilar tomonidan kam darajada tuzilganligi kuzatiladi. Bu borada oila huquqi nazariyasi va oila qonunchiligida o'rganilishi va tadqiq qilinishi lozim bo'lgan masalalar mavjud. Shu jumladan, oilaviy munosabatlarni tartibga solishda dispozitiv mexanizmlardan foydalanish va bu boradagi amaliyotni o'rganish ham muhim sanaladi. Xususan, oilaviy-huquqiy shartnoma tushunchasi, mazmuni hamda turlari, tasnifi, yuridik tabiati bilan bog'liq masalalar bilan bir qatorda qiyosiy huquqiy tahlil asosida xorijiy mamlakatlarda oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi, oilaviy shartnomalarning o'rni va shakllariga oid o'rganishlar muhim. Ilmiy adabiyotlarda oilaviy-huquqiy shartnoma, uning yuridik tabiati, turlari, tasnifiga oid o'rganishlar yetarli darajada deb bo'lmaydi. Maqolada xorijiy mamlakatlarda oilaviy huquqiy shartnoma turlari va ularning qaysi munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi, sud-huquq amaliyoti va unda shartnomaning o'rni kabi masalalar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan qiyosiy tahlil natijasida oilaviy shartnomaning oilaviy munosabatlarni tartibga solishdagi roliga e'tibor qaratilib, tahlil natijalari asosida xulosa va takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: oilaviy munosabatlar, huquq, mulkiy munosabatlar, shaxsiy nomulkiy munosabatlar, shartnomaviy-huquqiy tartibga solish, shartnoma, nikoh shartnomasi, farzandlikka olish, oilaviy-huquqiy shartnoma, oila huquqi, huquq tizimi.

ОСОБЕННОСТИ РЕГУЛИРОВАНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ И СЕМЕЙНО-ПРАВОВЫХ ДОГОВОРОВ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна,

доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент,
заведующая отделом НИИ семьи и женщин

Аннотация. Семья – это первичная социальная группа, основанная на официальном браке между мужчиной и женщиной, формируемая отношениями между родителями и детьми,

поддерживаемая нравственными нормами и правилами общества, передающая человеческую культуру следующему поколению и развивающая ее. На сегодняшний день уделяется особое внимание совершенствованию социальных, экономических и правовых основ укрепления этого института. Актуальными считаются такие вопросы, как брачно-семейные отношения, защита взаимных имущественных и личных неимущественных прав членов семьи, выполнение семейных обязанностей. При этом, несмотря на то, что семейно-правовой договор имеет особое значение как средство регулирования семейных отношений, отмечается, что он в меньшей степени заключается среди супругами. В связи с этим возникают вопросы, которые необходимо изучать и исследовать в теории семейного права и законодательства. В том числе важным считается использование диспозитивных механизмов в регулировании семейных отношений и изучение практики в этом отношении. В частности, наряду с вопросами, связанными с понятием, содержанием и видами, классификацией и правовой природой семейно-правовых договоров, важным является изучение своеобразия семейно-правовых отношений в зарубежных странах, роли и формы семейных договоров на основе сравнительно правового анализа. В научной литературе недостаточно исследований касательно семейно-правового договора, его правовой природы, видов и классификации. В статье анализируются такие вопросы, как виды семейно-правовых соглашений в зарубежных странах и отношения, которые регулируются ими, а также судебная практика. В результате сравнительного анализа автор акцентирует внимание на роли семейного договора в регулировании семейных отношений, а по результатам анализа делаются выводы и предложения.

Ключевые слова: семейные отношения, право, имущественные отношения, личные неимущественные отношения, договорно-правовое регулирование, договор, брачный договор, добрачный договор, усыновление, семейно-правовой договор, семья право, правовая система.

PECULIARITIES OF REGULATION IN FOREIGN COUNTRIES OF FAMILY RELATIONS AND FAMILY LAW CONTRACTS

Saydivalieva Khurshida Khodzhiakbarovna,

Research Institute for Family and Women,

Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Associate Professor

Abstract. The family is the primary social group based on official marriage between a man and a woman, formed by the relationship between parents and children, supported by the moral norms and rules of society, passing on human culture to the next generation and developing it. Today, special attention is paid to improving the social, economic, and legal foundations for strengthening this institution. Issues such as marriage and family relations, the protection of mutual property and personal non-property rights of family members, and the fulfillment of family obligations are considered topical. At the same time, despite the fact that the family law contract is of particular importance as a means of regulating family relations, it is noted that it is concluded to a lesser extent among spouses. In this regard, questions arise that need to be studied and researched in the theory of family law. The use of dispositive mechanisms in the regulation of family relations and the study of practice in this regard are also considered important. In particular, along with issues related to the concept, content, types, classification, and legal nature of family law contracts, it is important to study the originality of family law relations in foreign countries and the role and form of family contracts based on a comparative legal analysis. There is not enough research in the scientific literature regarding the family law contract, its legal nature, types, and classification. The article analyzes such issues as the types of family law agreements in foreign countries and the relations that are regulated by them, as well as judicial practice. As a result of a comparative analysis, the author focuses on the role of the family contract in the regulation of family relations, and based on the results of the analysis, conclusions and suggestions are made.

Keywords: family relations, law, property relations, personal non-property relations, contractual legal regulation, contract, marriage contract, premarital contract, adoption, family law contract, family law, legal system.

Kirish

Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda 2023-yilning 1 yanvar holatiga 9 729 961 ta oila mavjud bo'lib, 2018-yilga (8 489 671 oila) nisbatan to'rt yil davomida 1 240 290 taga ko'paygan [1].

Mamlakatimizda oilaga oid davlat siyosati yosh avlodni tarbiyalash, milliy madaniy-axloqiy qadriyatlarni, urf-odat, an'analarni saqlash hamda kelajak avlodga yetkazishda oilaning tutgan o'rni va ahamiyatining tan olinishiga asoslangan. Hozirgi kunda oila siyosatida an'anaviy oilaviy qadriyatlar asosida oila institutini mustahkamlash, oilada erkak va ayolning teng huquqliligini ta'minlash, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga erishish, oilaning ijtimoiy-ma'naviy muhitini yaxshilash, shuningdek, davlat organlarining, nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sherikligini kuchaytirishga ahamiyat qaratib kelinmoqda. Qolaversa, oila manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari, uning jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut ekanligi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-tarbiyaviy asoslarini qo'llab-quvvatlash, oilaviy tarbiya, gender tengligi kun tartibidagi asosiy masalalar sanaladi.

Oilalarni mustahkamlashga qaratilgan islohotlarga qaramasdan, 2022-yilda respublikada ajrashishlar soni 48 ming 734 tani tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 23,8 foizga oshgan. Shu bilan bir qatorda, 49 ming 774 nafar xotin-qizlar tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, ushbu holatlarning 81,8 foizi (49 774 tadan 40 759 tasi) ularning oilalarida sodir etilgan [2]. Bu ko'rsatkichlar oilaviy nizolarning ortib borayotganini, oila a'zolari o'rtasida o'zaro kelishuv va ishonchning pasayib borayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, oila instituti mustahkamligiga tahdid soluvchi qator omillar ham mavjudki, ushbu sharoitda oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlash dolzarb hisoblanadi. Xususan, jadal globalashuv, jamiyatda oilaviy munosabatlar madaniyatining pasayishi va

an'anaviy qadriyatlarga nisbatan oila a'zolari- da yangicha munosabatning shakllanishi, iqtisodiy integratsiya, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish bo'yicha tafovutlarning yanada chuqurlashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiy etishi va internet tarmog'ining keng quloch yoyishi, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarining kuchayishi kabi omillar shular jumlasidandir [3]. Jamiyatning transformatsiyasi va qadriyatlar almashinuvi jarayonida oilaviy munosabatlardagi nizolar o'sib boradi. Xususan, oilaviy nizolarning bunday sharoitda er va xotinning mulkiy huquqlari himoyasi, oila a'zolarining bir-biridan ta'minot olish huquqi nuqtayi nazaridan ortib borishi mumkin. Hozirda ham sudlar tomonidan ko'rilayotgan ishlardagi nizolarning aksariyati, xususan, 2022-yilda ko'rib hal etilgan 98 080 ta fuqarolik ishlarining 27 701 tasi yoki 28,2 foizi nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar hisoblanib, ularning 2 077 tasi yoki 2,1 foizi bola ta'minoti uchun aliment undirish bilan bog'liq ishlar [4] hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda oila a'zolarining o'z oilaviy majburiyatlarini bajarish, oilaviy huquqiy javobgarlik masalalari, nikoh va nikohdan keyingi davrda mulkiy huquqlar himoyasi, farzandlar manfaatlarining himoyalani- shida qonun normasining o'zi yetarli emasdek ko'rinadi. Bu borada qonunchilik normalari- ni takomillashtirish dolzarbligi ta'kidlangani bilan, oilaviy munosabatlarning shaxsiy xarak- terga egaligi, ularning o'zaro ishonch asosida qurilganligi muammoni taraflarning o'z shax- siy munosabatlarini kelishuv asosida qurish- ga, nizoli vaziyatlarda kelishuv va shartno- ma kabi dispoziitiv usullardan foydalanishni taqozo qilmoqda. Garchi Oila kodeksi bunday imkoniyatdan foydalanishni ko'plab modda- larida (*er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risida kelishuv (27-modda), nikoh shartnomasi (29-modda), ota-ona va voyaga yetmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujud- ga keltirish to'g'risida kelishuv (92-modda), aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (100-*

118-moddalar, 17-bob) ota-onaning kelishuviga binoan bolaga ism, ota ismi berish (69-, 208-moddalar), ota-onaning kelishuviga binoan ota-ona alohida yashaganda bolalarning qayerda yashash joyini belgilash (75-modda), ota-ona boladan alohida yashaydigan ota-ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida kelishuv (76-modda), bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv (195-modda) belgilagan bo'lsa-da, oilaviy huquqiy shartnoma tuzish amaliyoti milliy huquq amaliyotida oilalar tomonidan o'zaro munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida qabul qilinmayapti.

O'zbekistonda umumiy nikoh soniga nisbatan tuzilgan nikoh shartnomalarining ulushiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, 2017 yilda jami 306 197 ta nikoh rasmiylashtirilgan bo'lsa, shu yili tuzilgan nikoh shartnomasi 0,4 foizni tashkil etgan, 2021 yilda 305 211 ta nikoh rasmiylashtirilgan bo'lib, ularning 2749 tasi nikoh shartnomasi tuzganligini va bu foizda 0,9 ni tashkil etgan. 2022-yil davomida respublikada faoliyat olib borayotgan notariuslar tomonidan 8113 ta nikoh shartnomasi rasmiylashtirilgan bo'lib, ushbu davrda tuzilgan 296,7 mingta nikoh soniga nisbatan tuzilgan shartnomalar 2,7 foizni ko'rsatmoqda [5].

Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlari-da nikoh shartnomasi, ayniqsa, turmush o'rtoqlarning mulkiy (va ba'zi mamlakatlarda, nomulkiy) huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida mashhur. Yevropa va AQSh-da nikoh tuzayotgan er-xotinlarning o'rtacha 70 foizi nikoh shartnomasini tuzadi, bu nafaqat davlatlar mentaliteti, balki qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlari bilan ham izohlanadi [6].

Rossiya Federal notarial palatasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 142,5 mingta, 2021-yilda esa 148,3 mingta nikoh shartnomasi tuzilgan. Shu bilan birga, 2020-yilda nikoh shartnomalari ommaviyligining keskin o'sishi kuzatilgan 2019-yilga nisbatan o'sish 26 foizni tashkil etgan [7].

Shu nuqtayi nazardan xorijiy mamlakatlarda oilaviy shartnomalar qay darajada ahamiyatli ekanligi va ularning oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi ishtiroki qonun normasi bilan ayni shakldami, er va xotin o'rtasida qanday oilaviy huquqiy shartnomalar tuziladi va ularda huquqlarni himoya qilish shartlari qandayligi kabi masalalarni tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

A.X. Saidov [8] ta'kidlaganidek, "... milliy huquqqa asoslangan yuridik fan uchun qiyosiy huquqdan foydalanish muhimdir, chunki u bir xil huquqiy muammoning turli mamlakatlarda qanday hal etilishini aniqlashga yordam beradi, huquqiy tadqiqotlarni kengaytiradi; ijobiy va salbiy xorijiy yuridik tajribani hisobga olish imkonini beradi".

Qolaversa, mazkur mavzu ko'plab tadqiqotlarning obyektiga aylanib ulgurgan. Oilaviy-huquqiy shartnomalar masalalari MDH olimlari tomonidan kengroq o'rganilganini ko'rish mumkin. Xususan, oilaviy munosabatlarni o'ziga xos xususiyatlari va ularni tartibga solishning dispozitiv shakllari borasida G.V. Yeliseyeva [9], I.F. Aleksandrov [10], D.A. Kokova [11] tadqiqot olib borgan bo'lsalar, A.M. Lushnikov, N.N. Tarusina [12], Y.G. Malinovskaya [13], O.N. Nizamiyeva [14] oilaviy munosabatlarni shartnomaviy huquqiy tartibga solish va oilaviy-huquqiy shartnomalar tizimiga oid tadqiqotlarni olib borganlar. Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy huquqiy tartibga solishning qiyosiy huquqiy jihatlarini A.S. Laletina [15], A.S. Gasparyan [16], Y.S. Atroxova tahlil qilgan.

Oilaviy huquqiy shartnomalarni oilaviy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida ularning tizimi va turlari bilan bog'liq masalalar o'zbek olimlari [17] tomonidan kam tahlil qilingan hamda nazariy va amaliy jihatdan kompleks tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Bundan tashqari, yana muhim jihat mavjudki, oilaviy huquqiy shartnoma deganda ko'p holatlarda nikoh shartnomasi tushuniladi va boshqa oilaviy-huquqiy shart-

noma turlari amaliyotda juda kam tuziladi, qolaversa, nazariyada tadqiqotchilar tomonidan deyarli o'rganilmagan.

Material va metodlar

Tadqiqotda xorijiy mamlakatlarning oila qonunchiligida va turli huquq tizimlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlari qanday yo'lga qo'yilganligi, oilaviy huquqiy shartnomaning turlari, ularning yuridik tabiati, oila a'zolarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini shartnoma orqali tartibga solishning qay darajadali, bundan tashqari, xorijiy mamlakatlar sud-huquq amaliyoti bilan bog'liq masalalar tahlil qilindi hamda takliflar keltiriladi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, sotsiologik o'rganish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Oilaviy munosabatlarni shartnomaviy huquqiy tartibga solish har bir davlatning huquqiy tizimi, oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati, genezisi, zamonaviy tendensiyalar va globallashuv jarayonlaridagi transformatsiya, gender tengligi siyosatining xususiyati, shartnomalarning qaysi oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligiga bog'liq.

Yuridik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, oilaviy shartnoma borasida ko'plab tortishuvlar uchraydi, mazkur tortishuvlar oilaviy huquqiy shartnomaga o'rin bormi, u fuqarolik huquqiy shartnomaning o'zi ekanligi masalasidan tortib ular faqat mulkiy munosabatlarni tartibga solishda ahamiyatlimi yoki shaxsiy nomulkiy munosabatlarni ham tartibga solish joizmi, degan savollar bilan davom etadi. I.B. Novitskiy Rim huquqida mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda shartnomaviy konstruksiyalar mavjud bo'lganini yozadi, ayni shunday tahlillarni A.S. Gasparyan, Y.S. Atroxovalar keltirib o'tgan [18, 66-b.]. Bugungi bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda er va xotinning ham mulkiy, ham nomulkiy munosabat-

lari teng himoyalashida oilaviy shartnomalarning ahamiyati ortib bormoqda. Lekin har bir huquq tizimi o'ziga xos tarzda oilaviy shartnomalarni tuzish amaliyotiga ega. S.A. Dubrovsev tahlillariga ko'ra, ko'pgina davlatlarda o'rnatilgan mulk huquqi rejimidan kelib chiqqan holda shartnoma yoki huquq rejimi bilan oilaviy munosabatlarni tartibga solish farqlanadi. Umumiy, alohida va aralash turdagi er va xotinning mulk huquqi rejimi xorijiy mamlakatlar huquqida o'rnatilgan. Er-xotinning umumiy mulki rejimi Fransiya, Ispaniya, alohida mulk rejimi AQShda hamda aralash rejim Germaniya, Finlandiya, Islandiya, Shvetsiya, Daniya va Norvegiyada o'rnatilgan [19, 87-90-b.].

Anglo-sakson, romano-german huquq tizimlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solish usullari turlicha bo'lib, "nikohgacha bo'lgan munosabatlar"ning inobatga olinishi, "sovchilik" (xorijiy mamlakatlarda nikoh tuzish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish) "unashtirish", "fotiha" kabi munosabatlarining huquqiy ahamiyatli deb tan olinishi va bu davr mobaynida taraflarning o'zaro mulkiy munosabatlari shartnoma orqali tartibga solinishi, nikoh davrida yoki nikoh tugatilgach mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarning tartibga solinishi va himoyalashishi o'ziga xos tarzda ko'rish mumkin.

Xususan, anglo-sakson huquq tizimiga asoslangan mamlakatlarda *prenuptial*, ya'ni nikohgacha tuziladigan shartnomalar va *postnuptial* nikoh davrida va nikoh tugatilgach tuziladigan shartnomalar turi ajratiladi hamda amaliyotda fuqarolar tomonidan o'z mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda keng foydalaniladi. Bundan tashqari, nikoh va oila munosabatlarni tartibga soluvchi yagona tizimlashgan qonunchilikning mavjud emasligi [20, 369-b.], diniy normalar asosida nikoh munosabatlariga kirishish, gibrid (ham diniy normalar, ham huquq normasi amalga bo'lgan) huquq tizimlarining yaratilganligi oilaviy munosabatlarni shartnoma asosida tartib-

ga solish imkonini vujudga keltirganligini ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda, yuridik adabiyotlarda ko'plab tadqiqotchilar [21, 124-, 156-b.] nikohning o'zi shartnoma ekanligini ta'kidlaydilar, ba'zilar bu fikrni inkor qilib, ular o'rtasidagi farqni ko'rsatadilar. Ushbu bahsli masalaning mohiyatida nikoh va shartnoma o'rtasidagi farqlar mavjud bo'lsa, shartnoma mazkur jarayonda qanday rol o'ynamoqda va u qay darajada oila munosabatlari subyektlarining huquq va manfaatlarini himoyasi uchun xizmat qilmoqda, degan savollarga javob topish joiz.

AQSh Oliy Sudi qarorida bu borada tushuntirish keltirib o'tiladi: "Nikoh shartnomadan farqlanadi. Tomonlarning roziligi, albatta, uning mavjudligi uchun muhim, lekin nikoh shartnomasi tuzilganda, tomonlar o'rtasida o'zgartira olmaydigan munosabatlar paydo bo'ladi. Boshqa shartnomalar tomonlarning roziligi bilan o'zgartirilishi, qat'iyashtirilishi yoki kengaytirilishi yoki butunlay bekor qilinishi mumkin, ammo nikohda bunday emas. Munosabat rasmiylashtirilgach, tomonlar huquq va majburiyatlariga ega bo'ladi" [22].

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, nikohga kirishish va nikohning tugatilishi jarayonlarida shartnomaning roli yuqori bo'lib, nikoh va ajralishning u yoki bu davlatda qay tarzda tan olinishi hamda qaysi rejim orqali tartibga solinishiga bog'liq. M. Baratov to'g'ri ta'kidlaganidek, nikoh shartnomasining yuridik tomondan eng ahamiyatli jihati shundaki, u er-xotin o'rtasida istiqbolda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning sud amaliyotida to'g'ri hal qilinishida yordam beradi [23, 21-b.]. Masalan, anglo-sakson huquq tizimida aybni isbotlash orqali ajralish, aybsiz holatda ajralish institutining shartnoma shartlariga ta'siri bor. Bundan tashqari, nikohni davlat ta'sir kuchi orqali yoki individual nazorat qilish orqali tartibga solish rejimlariga ham bog'liq. Shuningdek, anglo-sakson huquqi tizimida tuzilgan ko'plab shartnomalar nikoh shartnomasi deb ataladi, ya'ni romano-ger-

man huquq tizimidagidek, predmetli nomlanmaydi, misol uchun, aliment, bolalar masalalari, ajralish, mol-mulkni taqsimlash masalalarini ular shu nikoh shartnomasi orqali kelishadilar. Faqatgina farqli jihati ularning nikohdan avval tuzilishi yoki nikoh mobaynida tuzilishiga bog'liq.

Tadqiqot natijalari tahlili

Anglo-sakson tizimidagi shartnoma turlariga berilgan ta'riflarni o'rganish asosida nikohdan oldingi shartnoma *prenuptial* [24] nikoh yoki fuqarolik nikohidan oldin tuzilgan shartnoma hamda nikoh mobaynida tuzilgan shartnoma *postnuptial* – nikoh davrida tuzilgan shartnoma turlariga ajratiladi. Ushbu shartnomalar odatda notarial tasdiqlangan hamda AQShda Firibgarlik to'g'risidagi nizom talablari asosida rasmiylashtiriladi. Ushbu shartnomalarning mazmuni sezilarli darajada farq qilishi mumkin, lekin ular odatda o'lim, ajralish yoki nikohning boshqa tarzda buzilishi holatlarida mulkni taqsimlash va turmush o'rtog'ini moddiy qo'llab-quvvatlash, xiyonat yoki vasiylik shartlarini o'z ichiga oladi.

R. Fairbairnning ta'rifiga ko'ra, *nikohdan oldingi kelishuv* nikoh tuzishdan avval er-kak va ayol o'rtasidagi kelishuv bo'lib, ular ajrashgan taqdirda bir-birlari oldidagi moliyaviy majburiyatlari va javobgarliklarini belgilashga qaratilgan [25]. Bunday turdagi shartnomalar, shuningdek, Germaniya, Yaponiya, Latviya, Gruziya, Isroilda tuziladi [26, 369-b.].

B. Brian ta'rifiga ko'ra, *nikohdan oldingi va nikoh davridagi bitimlar* – turmush qurishni rejalashtirgan yoki allaqachon turmush qurgan tomonlar ajrashganida yoki turmush o'rtog'i vafot etganida ega bo'ladigan boshqa huquqlarni o'zgartirish, voz kechish yoki qo'shishga rozi bo'lgan bitimlardir [27, 116-117-b.]. G.A. Debele, S. C. Rhodelar o'z tahlillarida Amerika qonunchiligiga ko'ra, nikohdan oldingi shartnomalar oddiy shartnomalar emas, AQShda ularga oid (28 shtatda qabul qilingan) "Nikohgacha va nikoh davridagi nikoh shartnomalari to'g'risida"gi

yagona qonun qabul qilingan. AQSh qonunchiligi umumiy masala sifatida shartnoma erkinligini juda qadrlaydi – shartnoma tuzish va uni amalga oshirish huquqi tushunchasi-ning AQSh Konstitutsiyasida mustahkamlanganini aytib o'tadilar [29, 2-5-b.]. Barcha 50 shtat nikohdan oldingi shartnomalarni u yoki bu shaklda tan olgan bo'lsa-da, shartnoma qaysi shtatda yozilganligi va u qayerda amalga oshirilishi mumkinligini bilish muhimdir.

Har bir shtatda nikohdan oldingi shartnomalarning ko'lamini va bajarilishi to'g'risida o'z qonuni mavjud. Taxminan 26 ta shtat qabul qilgan yagona Nikohdan oldingi kelishuv qonuni mavjud, ammo bu shtatlarning har biri mazkur qonunga o'z o'zgartirishlarini kiritgan. Qolgan shtatlar o'z nizomlarini qabul qildilar yoki umumiy huquqni qo'llaydilar. Shtatlardagi o'zgaruvchan talablarga qaramasdan, ellikta shtat bo'ylab takrorlangan shartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi [29, 2-5-b.]:

- shartnoma yozma shaklda bo'lishi kerak va u muayyan texnik talablarga javob berishi lozim;
- shartnoma nikohdan oldin imzolaniadi va nikoh rasmiylashtirilgach, kuch kiradi;
- shartnoma davlat siyosatiga zid bo'lgan mavzularni qamrab olmaydi;
- shartnoma mohiyatan adolat standartlariga javob berishi kerak.

AQShda tuziladigan bunday shartnomalar bo'yicha 2010-yilda yangi turmush qurganlar va nikoh qurish istagida bo'lganlar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma [30] shuni ko'rsatdiki, fuqarolarning atigi 3 foizi nikohdan oldin shartnoma imzolaganliklarini bildirishgan. 2022-yilda umumiy javob berganlarning 15 foizi nikoh shartnomasini imzolaganliklarini aytishdi va yosh nikohlanuvchilar bunga hissa qo'shmoqda. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, 18 yoshdan 34 yoshgacha bo'lgan yangi turmush qurgan va nikohni rasmiylashtirgan nikohlanuvchilarning qariyb 40 foizi nikohdan oldingi kelishuv bo'yicha muzokaralar olib borishgan.

B. Brian o'z tadqiqotlarida [31, 123-130-b.] AQSh qonunchiligidagi quyidagi shartnomalar turlari haqida tahlil keltiradi:

Nikoh mobaynida tuzilgan shartnomalar nikohdan oldingi kelishuvlardan faqat mudatlari bilan farqlanadi. Nikoh bitimlari turlari allaqachon nikohda bo'lganlarida, ya'ni nikohdan oldingi kelishuvlardan kechroq, lekin ajralish yaqin bo'lmagan vaqtda tuziladi; agar shunday bo'lsa, kelishuvlar ajralish bitimlari sifatida ko'rib chiqiladi.

Birgalikda farzand tarbiyalash to'g'risidagi shartnomalar turmush qurmagan juftliklar tomonidan tuzilgan shartnomalar bo'lib, ularda har biri boshqasining qonuniy huquqlari va imtiyozlarini tan olishga (e'tiroz bildirmaslikka) rozi bo'ladi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ochiq shartnomalar farzandni asrab oluvchi otana farzandlikka olish tugallangandan keyin farzandlikka olingan bola va bolaning tug'ishgan ota-onasi o'rtasida qandaydir darajada doimiy aloqada bo'lishiga ruxsat berishga rozi bo'lgan kelishuvlardir.

N.V. Lyalina o'z tahlilida [32, 82-b.] AQShda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda farzand tarbiyasiga oid shartnomaning – *parenting agreement* roli haqida aytib o'tadi. Mazkur shartnoma shartlarini Amerika sudlari bola manfaatlaridan kelib chiqib o'zgartirishi mumkin va u er yoki xotin uchun majburiy ahamiyat kasb etmaydi. Ushbu shartnomaning namunaviy shartlari Amerika advokatlar uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan [33] bo'lib, unga ko'ra, er va xotin nikohdan ajrashgan taqdirda boladan alohida yashovchi ota yoki ona bola hayotida ro'y berayotgan vaziyatlardan xabardor etish, bola bilan muloqot qilishini cheklamasligi, ta'lim, sog'liqni saqlash va bola rivojlanishi bilan boshqa jihatlarni kelishish mumkin. Shuningdek, AQShda nikohdan ajrashishda shartnoma sudsiz nizoni hal etish va nikohni bekor qilish asosi hisoblanadi. Bunda nikoh shartnomasida mulkiy munosabatlar va bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nomulkiy

munosabatlar nizo holatida qanday yechim topishiga oid shartlar bo'lishi lozim, faqat shu holatda u sudsiz hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi [34, 130-b.].

AQShda uzoq payt sudlar nikoh shartnomasi davlat siyosatiga zid deb hisoblangan, chunki ular oilaviy munosabatlarni buzishi yoki nikohni buzishni rag'batlantirishi mumkin deb qaralgan. Sudlar, shuningdek, er va xotin o'rtasida teng bo'lmagan moddiy holat haqida tashvishlangan. Biroq 1970-yillardan boshlab, sudlar bunday kelishuvlar adolatli shartlarda tuzilgan bo'lsa, davlat siyosatini buzmaydi, degan xulosaga kelgan. Qonuniy jihatdan bu shartnomalar mulk qanday bo'linishi yoki ajralishdan keyingi moliyaviy majburiyatlarni belgilab beradi. Sud nikohdan oldin tuzilgan shartnomaning ba'zi qoidalarini bajarib bo'lmaydigan deb topishi va shuning uchun ushbu qoidalarini yoki butun shartnomani haqiqiy emas deb topishi mumkin. Shartnomaning to'liq yoki qisman bajarilishini aniqlashda sudlar quyidagilarni baholaydilar: adolatlilik, huquq va majburiyatlarning aks etishi, mustaqil advokatning mavjudligi, shartnomaning muddati va shartlari. Adolatni baholashda sudlar kelishuvning nomutanosib ravishda tomonlardan birini boshqasidan ustun qo'yishini ko'rib chiqadilar. Keyingi sudlar tomonlar o'z huquqlari va majburiyatlarini to'liq oshkor qilgan-qilmaganligini, so'ngra tomonlar kelishuv loyihasini tuzishda advokat bilan maslahat qilgan-qilmaganliklarini ko'rib chiqadilar. Shu bilan birga, sudlar shartnoma qanday sharoitlarda imzolanganini, ayniqsa, har bir tomon uchun kelishuvni baholash uchun oqilona vaqt bor-yo'qligi va har qanday majburlash yoki majburlash belgilari mavjudligini ko'rib chiqadi.

Xorijiy mamlakatlarni tahlil qilishda ba'zi davlatlardagi oilaviy munosabatlarni tartibga solishdagi huquqiy rejimning gibrid holati, ya'ni diniy normalarning qonunda o'rnatilishi farqli holat bo'lib ko'ringani uchun bunda er hamda xotin huquq va manfaatlarini ta'minlashda ahamiyatli ekanligini o'rganish maq-

sadida Isroil qonunchiligini tahlil qildik. Tahlillarga ko'ra, Isroilda uch xil turdagi nikoh mavjud: rasmiy nikoh; fuqarolik (kelishuv) nikohi (brit zugiyyut); rasmiy nikohsiz birgalikda yashash (de fakto nikoh, yadium besibur) [35, 86-93-b.]. *Rasmiy nikoh* deganda faqat yahudiy diniga mansub fuqarolarning birgalikdagi turmush qurishlari tushuniladi. Bunda rasmiy rabbinlar kengashlari (diniy kengashlar) tomonidan nikoh tasdiqlangach, so'ngra nikoh qayd etiladi. Rabbinlar kengashi ba'zan yahudiylardan o'z yahudiyligini va yahudiy dinida ekanini isbotlashlarini talab etishi mumkin. *Fuqarolik (kelishuv) nikohi (brit zugiyyut)* – bunday turdagi nikoh hech qanday diniy mansubligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilishi mumkin. Buning uchun bo'lajak nikohlanuvchilar Isroil hududida doimiy yashovchi bo'lishlari va hech qanday diniy konfessiyaga a'zo emasliklarini rasmiylashtirishlari lozim.

Isroillik bilan turmush qurgan chet elliklar Isroil fuqaroligiga da'vogarlik qila oladilar. Buning uchun 5 yil Isroil hududida nikohda yashash talab etiladi. Isroilda oila qurishning o'ziga xos diniy qoidalari o'rnatilgan.

1. Sovchilik (shidux) amalga oshirilishi lozim hamda professional sovchilar (shaxdenu) jalb qilinadi.

2. Agar sovchilik natijasida oila qurishga kelishilgan bo'lsa, maxsus hujjat rasmiylashtiriladi (tanim), unda to'y kuni va to'y marosimi bo'yicha barcha moddiy xarajatlar kelishib olinadi.

3. "Xupa", ya'ni to'y "ktuba" nikoh shartnomasini imzolashdan boshlanadi. Unda er va xotinning huquq va majburiyatlari o'rnatiladi, shuningdek, erkakning ajralish holatida majburiyatlari ko'rsatib beriladi. Shartnoma eski oromiy tilida tuziladi, bu eski yahudiy tili hisoblanadi va u ivrit tiliga ham tarjima qilinadi.

Nikoh shartnomasi, ya'ni ktubada ayolning sarposi va mahri ko'rsatiladi. Ajralish paytida erkak kishi mazkur mahrning 3

barobarini berib ajrashadi. Ktuba guvohlar va er-xotin tomonidan imzolanadi. Kuyov kelinga uzuk taqqach, rabbin ktubani o'qib eshittiradi va ktuba kelinga topshiriladi. Ktubani saqlash kelinning majburiyatiga kiradi. Ktuba yo'qolsa yoki nobud bo'lsa, undagi shartlarda guvohlar ko'rsatmasi saqlanib qoladi. Ktubadagi guvohlar kelin yoki kuyov qarindoshlari bo'lmashliklari kerak. Ktuba yahudiy ulamolarining qarori asosida tuziladi. Ktubadan maqsad ajralishlarning oldini olish. Ktuba bo'yicha ajralish vaqtidagi to'lanadigan summa miqdori turlicha: agar kelin bokira bo'lsa, 200 dinor miqdoridagi tovon to'lash majburiyati, agar kelin bokira bo'lmasa (beva qolgan, ajrashgan), 100 dinor miqdorida to'lanadi. Ktuba 3 qismdan tashkil topgan bo'ladi. Birinchi qismda to'lanadigan tovon, ikkinchisida kelinning sarposi va uchinchi qismda kuyovning o'z xohishi bilan to'laydigan 3 barobar miqdoridagi to'lovi ko'rsatiladi.

Fransiyada nikohdan avvalgi, nikoh davrida va nikohdan ajralgandan so'nggi shartnoma turlari mavjudligi haqida N. Fremaux tadqiqotlarida keltirib o'tadi. Nikohlanuvchilar turmush qurish paytida nikohdan oldingi shartnoma tuzish yoki tuzmaslikka qaror qilishlari lozim [36, 4-5-b.]. Nikohdan oldingi shartnomalar har bir nikohlanuvchining, ya'ni er-xotinning mol-mulkiga nisbatan mulkiy huquqlarini belgilaydi. Mazkur huquqlarga nikoh davridagi mulk huquqi, nikoh sanasidagi kelin va kuyovning mol-mulki ro'yxati, olingan mahr to'lovlari (agar mavjud bo'lsa) va shartlar (masalan, turmush o'rtoqlardan biri vafot etganida uy-ro'zg'or boyligiga nisbatan qo'llanadigan qoidalar) kiradi. Nikoh shartnomasi notarial tasdiqlanishi shart. Agar nikohlanuvchilar nikohdan oldin shartnoma tuzishni istamasalar, 1965-yilda Fransiyada mulk huquqini belgilovchi qoidalar asosida mulkiy munosabatlarini tartibga soladilar.

Er va xotinning mol-mulki, mulk huquqi fransuz qonunchiligida 3 turga ajratiladi:

er-xotinning umumiy mulki, er yoki xotinning har birining alohida mol-mulkilari. Ular har bir mulk qaysi turga tegishli ekanini, shu jumladan, nikoh sanasidan keyin sotib olingan mulklarni belgilaydi. Er-xotin mulk rejimlarining turlari mavjud bo'lib, ularni ikki turga bo'lish mumkin: umumiy mulk va shaxsiy mulk rejimlari.

Umumiy mulk rejimida er va xotin mol-mulki er ham, xotin ham egalik qilishi mumkin bo'lgan birgalikdagi mulki sifatida qaraladi. 1804-yilda Fuqarolik kodeksining yaratilishidan boshlab, 1965-yildagi nikoh islohotiga qadar er-xotinning ushbu umumiy mulk rejimi barcha moliyaviy aktivlarni, ularning maqomidan qat'i nazar, (merosga olingan, nikohdan oldin yoki keyin olingan) birgalikdagi mol-mulk deb hisoblaydi.

Nikoh paytida olingan ko'chmas mulk ham, umumiy mulk bo'lib, meros bo'lib qolgan va nikohdan oldin olingan ko'chmas mulk ham alohida mulk sifatida ko'rib chiqiladi. Turmush o'rtoqlar tomonidan olingan daromadlar birgalikdagi mulklar, shu jumladan, alohida mol-mulkning daromadlari hatto har bir taraf o'zining alohida mol-mulkining yagona egasi bo'lib qolgan taqdirda ham hisobga olinadi.

O'n to'qqizinchi asrning o'rtalarida Fransiyada nikohdan oldingi shartnomani imzolash odatiy hol edi, chunki yangi turmush qurganlarning 40 foizi nikohdan oldingi shartnomani tanladilar. Nikohdan oldingi kelishuv bilan nikohlarning ulushi XIX asr oxiriga kelib kamaydi va XX asr boshlarida 20 foiz atrofida barqaror bo'lib qoldi. 1965-yilda nikoh mulki tartiblari islohotidan so'ng u atigi 10 foizga kamaydi. 1975-yildan boshlab nikohdan oldingi shartnoma tuzgan yangi turmush qurgan er-xotinlarning ulushi yana ko'paydi va 2010-yilda 20 foizga yetdi. Shunga qaramay, er-xotinning mulkiy huquqlari o'tgan davr mobaynida keng o'zgardi. 1965-yilgi islohotgacha er-xotin mol-mulkining eng keng tarqalgan rejimlari mahr va "fotiha" rejimi edi [37, 7-b.].

Fransuz qonunchiligiga ko'ra, nikohdan ajrashish chog'ida er va xotin nikohdan so'ng o'zaro munosabatlarini qanday tartibda amalga oshirishlariga oid shartlar aks etgan shartnomani sudga taqdim etishlari va sud uni tasdiqlashi lozim. Sud toki har ikkala taraf o'z huquqlari va farzandlar huquqlarini inobatga olgan shartnoma shartlariga erishilmagunga qadar shartnomani tasdiqlamaydi [38].

Xulosalar

Xorijiy mamlakatlarda oilaviy shartnomalar mazmunini tahlil qilish hamda oilaviy munosabatlarni shartnomaviy huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish ba'zi xulosalar uchun imkon yaratdi. *Birinchidan*, har bir davlatning huquqiy tizimi va oila, nikoh institutlarining xususiyatlari er va xotin tomonidan tuziladigan shartnoma va uning shartlarida katta rol o'ynaydi. *Ikkinchidan*, gender tengligi siyosatining yo'lga qo'yilganligi ham ma'lum ma'noda nikoh davrida yoki undan keyingi munosabatlarning tartibga solinishi, nikohga kirishish mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarning huquqiy rejim orqali qanday himoyalaniishi ham davlatlarning huquq tizimlari va oila qonunchiligi prinsiplariga bog'liq. *Uchinchidan*, aksariyat davlatlarda shartnoma tuzish

erkinligi, individual nazorat tamoyillari ustuvorlik qiladi, ko'p davlatlarda oila shartnomasi nikoh shartnomasi tushunchasi bilan bir xil. *To'rtinchidan*, G'arb davlatlarining oila qonunchiligida nikoh shartnomasida mulkiy munosabatlardan tashqari shaxsiy huquq va majburiyatlar ham o'zaro kelishib olinishi mumkin. Bu nikohning shartnoma shakliga muvofiq keladi. Bunda er-xotin o'rtasidagi munosabatni tartibga solishda nikoh shartnomasi muhim rol o'ynaydi. Nikoh shartnomasi shartlarini bajarmaslik nikohni bekor qilishga, hatto ma'lum huquqiy javobgarlikka ham olib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, *birinchidan*, oila huquqi metodologiyasida oilaviy huquqiy shartnomalar asosida vujudga keluvchi majburiyatlarni bajarishni ta'minlash va oilaviy shartnomaviy javobgarlikka oid masalalarni ishlab chiqish, *ikkinchidan*, oilaviy-huquqiy shartnomalarni tizimlashtirish, ularni qo'llash ko'lamini kengaytirish, *uchinchidan*, oilaviy huquqiy shartnoma institutini rivojlantirish, ularning yuridik tabiatini chuqurroq tahlil qilish, klassifikatsiya qilish va o'rganish, amaliyotda shartnomalarni qo'llash va kelishuv asosida nizolarni hal qilish vositasi sifatida foydalanishni targ'ibot qilish taklif etiladi.

REFERENCES

1. Qaysi viloyatda oilalar ko'p? [Which region has the most families?] Statistics agency under the President of the Republic of Uzbekistan. Statistics. Official channel of Telegram. Available at: https://t.me/statistika_rasmiy/2587
2. Statistics agency under the President of the Republic of Uzbekistan, Ministry of Internal affairs of the Republic of Uzbekistan, Committee of family and women. Demographics. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2/>
3. Borisenkov V.P., Gukalenko O.V. Institut sem'i i semeynaya politika v sovremennoy Rossii: problemy, tendentsii i perspektivy [The Institute of the Family and Family Policy in Modern Russia: Problems, Trends and Prospects]. *Bulletin of Eurasian Science*, 2014, vol. 5 (24), p. 159. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/institut-semi-i-semeynaya-politika-v-sovremennoy-rossii-problemy-tendentsii-i-perspektivy/>

4. Based on the information of the official website of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://stat.sud.uz/fib.html/>
5. Based on the information of the notary chamber of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://notarialpalata.uz/uz/>
6. Brachnyy kontrakt: osobennosti v raznykh stranakh mira [Marriage contract: features in different countries of the world]. Available at: <https://gflolaw.com/brachnyj-kontrakt/>
7. Brachnyye dogovory ustanovili rekord populyarnosti [Prenuptial agreements set a popularity record]. Available at: https://pravo.ru/news/239154/?utm_source=yxnews&utm_medium=partner
8. Saidov A.Kh. Sravnitelnoye pravovedeniye (osnovnyye pravovyye sistemy sovremennosti) [Comparative Law]. Ed. V.A. Tumanova. Moscow, Yurist Publ., 2003, p. 31.
9. Pravovyye osnovy regulirovaniya semeynykh otnosheniy v RF [Legal basis for the regulation of family relations in the Russian Federation]. *Bulletin of the Siberian Institute of Business and Information Technologies*, 2014, no. 3 (11), p. 42.
10. Aleksandrov I.F. Pravovoye regulirovaniye semeynykh otnosheniy: sootnosheniye semeynogo i grazhdanskogo prava [Legal regulation of family relations: correlation of family and civil law]. Abstract of PhD thesis. Samara, 2004.
11. Kokova D.A. Soderzhaniye semeynykh pravootnosheniy [The content of family relations]. PhD thesis. Moscow, 2017, 173 p.
12. Lushnikov A.M., Tarusina N.N. Dogovory v sfere sem'i, truda i sotsial'nogo obespecheniya (tsivilisticheskoye issledovaniye) [Treaties in the field of family, labor and social security (civilistic research)]. Yaroslavl, 2008, pp. 35–40.
13. Malinovskaya Ye.G. Dogovornoye regulirovaniye semeynykh otnosheniy v Rossii i Belarusi [Contractual regulation of family relations in Russia and Belarus]. PhD thesis. Moscow, 2007, 165 p.
14. Nizamiyeva O.N. Dogovornoye regulirovaniye imushchestvennykh otnosheniy suprugov [Contractual regulation of property relations of spouses]. PhD thesis. Kazan, 1999, 192 p.
15. Laletina A.S. Sravnitelno-pravovoye issledovaniye dogovornogo regulirovaniya immushchestvennykh otnosheniy suprugov v prave RF i Frantsii [Comparative legal study of contractual regulation of property relations of spouses in the law of the Russian Federation and France]. PhD thesis. Moscow, 2004.
16. Gasparyan A.S., Atrokhova Ye.S. Brachnyy kontrakt. Garantiya semeynogo schastya [Marriage contract. Guarantee of family happiness]. Rostov-on-Don, Phoenix Publ., 2004, 287 p.
17. Otaxo'jaev F.M. O'zbekiston Respublikasi nikoh to'g'risidagi qonunlarining rivojlanishi va ularni takomillashtirish muammolari [Development of marriage laws of the Republic of Uzbekistan and problems of their improvement]. PhD thesis. Tashkent, 2000, p. 27.
18. Novitskiy I.B. Osnovy rimskogo grazhdanskogo prava [Fundamentals of Roman civil law]. Moscow, Zertsalo Publ., 2007, p. 66.
19. Dubrovtssev S.A. K voprosu o sotsial'no-pravovom statuse brachnykh kontraktov v zarubezhnykh stranakh [On the issue of the social and legal status of marriage contracts in foreign countries]. *Gaps in Russian legislation*, 2011. no. 5, pp. 87–90.
20. Nikitin D.N. Zarubezhnyy opyt dogovornogo regulirovaniya lichnykh neimushchestvennykh otnosheniy sub'ektov semeynogo prava [Foreign experience of contractual regulation of personal non-property relations of subjects of family law]. *Young Scientist*, 2013, vol. 3 (50), p. 369.
21. Antokolskaya M.V. Semeynoye pravo [Family law]. Moscow, Yurist Publ., 1996, p. 124.
22. Maynard v Hill, 125 U.S. 190, 205. Available at: <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/125/190/>
23. Yuldasheva Sh., Baratov M. Nikoh shartnomasi nima? [What is a marriage contract?]. Tashkent, TSUL, 2006, p. 21.
24. Prenuptial and Postnuptial Agreements Under the Law. Available at: <https://www.justia.com/estate-planning/asset-protection/prenuptial-postnuptial-agreements/>

25. Fairbairn R. Prenuptial Agreements. Available at: https://www.academia.edu/8846482/Prenuptial_Agreements/
26. Turgunov M.T. «Avesto»da inson huquqlarini o'rganishning metodologik muammolari [Methodological problems of studying human rights in Avesta]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2021, p. 61.
27. Brian B. Agreements in American Family Law. *Juris. Fam.*, 2013, pp. 116–117. Available at: <https://ssrn.com/abstract=3223900/>
28. Debele G.A., Rhode S.C. Prenuptial Agreements in the United States. Pp. 2–5. Available at: https://www.iafl.com/media/1169/prenuptial_agreements_in_the_us.pdf/
29. Qo'ldashev N.A. Nikoh va nikoh shartnomasi: nazariy va amaliy tahlil [Marriage and marriage contract: theoretical and practical analysis]. Available at: <https://iiv.uz/oz/news/nikoh-va-nikoh-shartnomasi-nazariy-va-amaliy-tahlil/>
30. How many couples now sign prenuptial agreements? Available at: <https://www.myfamilylawyer.net/blog/2022/12/how-many-couples-now-sign-prenuptial-agreements/>
31. Singer J.B. Strategies to Strengthen Marriage: What Do We Know? What Do We Need to Know? Washington, DC, Family Impact Seminar, University of Maryland School of Law, 1997, June 23–24, pp. 129–134.
32. Lyalina N.V. Soderzhaniye, osushhestvleniye i zashhita prav roditelya, prozhivayushhego otdelno ot rebenka v Soyedinennykh Shtatakh Ameriki [The content, exercise and protection of the rights of a parent living separately from the child in the United States of America]. PhD thesis. Moscow, 2006, p. 82.
33. ABA Resources. Available at: <https://www.americanbar.org/en/>
34. Semeynoye pravo Rossiyskoy Federatsii i inostrannykh gosudarstv [Family law of the Russian Federation and foreign states]. Ed. V.V. Zalessky. Moscow, 2004, p.130.
35. Strovskiy D.L., Jilyakova E.V. Zhenshhina v sovremennom Izraile: k popytke postroyeniya sotsialnogo portreta [Woman in modern Israel: towards an attempt to build a social portrait]. *History and modern outlook*, 2020, vol. 2, no. 4, pp. 86–93. Available at: <https://sinagoga.jeps.ru/iudaizm/praktika-evrejskoj-zhizni/xupa/#hupa2/xupa/>
36. Fremeaux N., Leturcq M. Prenuptial Agreements and Matrimonial Property Regimes in France, 1855–2010. 2017, January, pp. 4–5. <https://www.researchgate.net/publication/312583740/>
37. Blackstone W. Commentaries on the Laws of England. 1765, vol. 1 (1765), pp. 442–445.
38. Grazhdanskiy kodeks Fransii [French Civil Code]. Trans. V.N. Zakhvataeva. Moscow, 2012, p. 232.
39. Polyakova K.D. Problemy instituta sem'i i braka s filosofskoy tochki zreniya [Problems of the institute of family and marriage from the philosophical point of view]. Khabarovsk, Far Eastern State Transport University. Available at: https://www.elibrary.ru/download/elibrary_48603298_41730935.pdf/
40. Kak menyayetsya institut sem'i: krizis/transformatsiya [How the institution of the family is changing: crisis/transformation]. Psychotherapy Clinic "Salvation". Available at: <https://dzen.ru/a/ZA8ZGYSSI3HzeXeb/>
41. Meyer D.I. Russkoye grazhdanskoye pravo [Russian civil law]. Part 1. Moscow, 1997, p. 156.
42. Pobedonosev K.P. Kurs grazhdanskogo prava [Civil law course]. Moscow, 2003, vol. 2, p. 13.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.

TDYU tipografiyasida chop etildi.